



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI

2026-yil 30-yanvar

33-4-0-Q/26

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil I yarim yillik
ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, **“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** 2024-yil 20-dekabrdagi PF-223-son Farmonida belgilangan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari ijrosini hamda hokimlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to‘laqonli bajarilishini ta‘minlash, ijro intizomini yanada mustahkamlash maqsadida **“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan**

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2026-yil 15-yanvardagi **“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil I-yarim yilligi ish rejasi to‘g‘risida”gi 3-son bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**
2. Viloyat hokimligining 2026-yil I-yarim yilligik ish rejasi **ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.
3. Quyidagi muhim hujjatlar ijrosini ta‘minlash viloyat hokimi o‘rinbosarlari, viloyat hokimligi apparati bo‘linmalari, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2026-yil uchun belgilab berilgan ustuvor vazifalar;

“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrda PF-223-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shincha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmoni;

Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturi ijrosini samarali va natijador tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 10-dekabrda 136-son bayoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil I-yarim yillik ish rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlar.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari, viloyat boshqarmalari rahbarlari, tuman va shaharlar hokimlari bilan birgalikda:

viloyat hokimligining 2026-yil I-yarim yillik ish rejasi ijrosining bajarilishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlarining bajarilishini ta’minlashda ijro intizomiga qat’iy rioya qilish va uni yanada mustahkamlash;

“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq;

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni 2026-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish;

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini amalga oshirish doirasida 2026-yil uchun belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga o‘z vaqtida, to‘laqonli va sifatli erishilishini ta‘minlash, tuman va shahar hokimlari, boshqarmalar rahbarlari va ularning o‘rinbosarlarining bu boradagi **mas’uliyati va shaxsiy javobgarligini oshirish** hamda **faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish maqsadida** mutasaddi rahbarlar faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI), samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha **“yo‘l xaritalar”** hamda mutasaddi rahbarlar qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e‘tiborni qaratgan holda boshqarmalar hamda tuman va shahar hokimliklarining 2026-yil I-yarim yilligi uchun ish rejalarini tasdiqlash.

Viloyat hokimligining 2026-yil I yarim yillikka mo‘ljallangan ish rejasi talablariga qat’iy rioya etilsin.

a) **2026-yil 10-fevralga qadar** – tegishli boshqarmalar, idoralar, shahar (tuman)lar hokimliklarining 2026-yil I-yarim yillik ish rejalarini tartibga solish bo‘yicha kompleks tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilsin;

b) **doimiy va tizimli asosda** – hokimliklar apparati va idoraviy mansub tarkibiy bo‘linmalarda ijro intizomining holatini tanqidiy o‘rganib chiqilishini (***ishlab chiqilgan reja-jadvalga muvofiq***) ta‘minlash;

v) **2026 yil 15-iyulga qadar** viloyat hokimligi apparatining tegishli tarkibiy bo‘limlariga 2026-yil I-yarim yilligi ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlarni taqdim etish topshirilsin.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlariga:

viloyat hokimi va uning o‘rinbosarlari rahbarlik qiladigan amaldagi komissiyalar (kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar) faoliyatini, ularning maqsadli vazifalarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarilishini tashkil qilish;

yagona idoralararo ijro intizomi elektron tizimi (ijro.gov.uz) orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini o‘z muddatida sifatli va to‘liq amalga oshirilishini ta‘minlash, ushbu jarayonlarda hujjatlarning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq to‘g‘ri rasmiylashtirilishiga alohida e‘tibor qaratish;

2026-yil I-yarim yillik ish rejasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumat, viloyat hokimi topshiriqlari hamda funksional vazifalardan kelib chiqqan holda oylik

ish rejalarini samarali va oqilona rejalashtirish, komplekslar tarkibiga kiruvchi boshqarma, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari, shahar, tumanlar hokimliklarining ishlari rejalashtirilishiga, ularning har oylik ish rejaları tasdiqlanishi va bajarilishi natijadorligiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish choralarini ko'rish;

6. Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi (F.Ergashev), ijro intizomi nazorati bo'limi (A.Erkayev):

Vazirlar Mahkamasining tegishli departamentiga **2026-yil 20-iyulga qadar 2026-yil I-yarim yillik** ish rejasining bajarilishi to'g'risidagi axborotni va **2026-yil II- yarim yillik** ish rejasi loyihasi yuzasidan takliflar taqdim etsinlar.

7. Belgilab qo'yilsinki, viloyat hokimining o'rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari ish rejada belgilab qo'yilgan vazifa va masalalarning o'z vaqtida to'liq bajarilishini ta'minlash bo'yicha shaxsan mas'uldirlar.

8. Mazkur qaror ijrosining nazorati viloyat hokimining o'rinbosarlari, viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo'limi (A.Erkayev) zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyati hokimining
2026-yil 30-yanvardagi
33-4-0-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**Qashqadaryo viloyati tumanlarida 2026-yil I chorakda qishloq xo‘jaligi sohasida
amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar to‘g‘risida
“CHORA-TADBIRLAR DASTURI”**

N^o	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxtachilik va g‘allachilikda hosildorlikni oshirish uchun yuqori samarador intensiv agrotexnologiyalarni qo‘llashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 9-dekabrda PQ-370-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash.	1. Zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni keng joriy etish natijasida hosildorlikni paxtachilikda 50 sentnerdan oshirish, g‘allachilikda 100 sentnerga yetkazish bo‘yicha ishlarni tizimli tashkil etish. 2. Viloyatda paxta va g‘alla yetishtirishda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kengaytirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish. 3. Viloyatda ilm-fan yutuqlari va ustoz-shogird an‘analariga asoslangan yangi tizimni joriy etish orqali paxtachilikda hosildorlikni oshirish ishlarini tizimli tashkil etish.	2026-yil mavsum davomida	Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (U.Uzoqov) , Viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (O.Boymirov) , tumanlar hokimlari

2.	2026-yil paxta hosili uchun paxta-to'qimachilik klasterlari fermer xo'jaliklari o'rtasida shartnoma tuzish ishlarini tizimli tashkil etish.	1. Viloyatda 2026-yilda paxta yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlari tomonidan "CropAgro" axborot tizimiga paxta maydonlarini joylashtirish ishlarini yakunlash. 2. Qishloq xo'jaligi subyektlari tomonidan axborot tizimiga kiritilgan paxta maydonlari uchun shartnoma tuzish ishlarini yakunlash. 3. Axborot tizimiga kiritilgan paxta maydonlari uchun imtiyozli kredit mablag'larini ajratish ishlarida amaliy yordam berish.	2026-yil fevral 2026-yil fevral 2026-yil fevral	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (U.Uzoqov), Viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (O.Boymirov), tijorat banklari, paxtachilik klasterlar, tumanlar hokimlari
3.	2026-yil hosili uchun paxta ekiladigan maydonlarda kuzgi-qishki tadbirlarni sifatli amalga oshirish.	1. Shudgorlash ishlarini qisqa muddatlarda amalga oshirish maqsadida yuqori unumli xaydov texnikalarini to'liq jalb etish. 2. Shudgorlash uchun yoqilg'i moylash materiallari va to'lovlar zarur mablag'larni shakllantirish. 3. Joylarda shudgorlangan maydonlarni har bir konturlari to'rtburchak "konvert" usulida to'liq shudgorlash. 4. Yer tekislash, pushta olish, pushtaga nam suv berish ishlarini amalga oshirish.	2026-yil fevral 2026-yil fevral 2026-yil fevral 2026-yil mart	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (U.Uzoqov), Viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (O.Boymirov), "O'zagroinspeksiya" viloyat boshqarmasi (S.Donayev), Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi

				(F.Siddiqov), tumanlar hokimlari
4.	2026-yil hosili uchun paxtachilikda “Ustoz-shogird” an’analarini joriy etish.	1. Viloyatdagi 1 435 ta (“shogird”) fermerlarga biriktirilgan 120 ta ilg’or (“ustoz”) fermerlar tomonidan qishki agrotexnik tadbirlarni o’tkazishda amaliy yordamlar berish. 2. Xududlarda 1 435 ta (“shogird”) fermerning paxta ekiladigan maydonlarida sifatli shudgorlash ishlariga amaliy yordam ko’rsatish hamda qisqa muddatlarda yakunlash. 3. “Ustoz” fermerlarning texnika va agregatlaridan unumli foydalangan holda “Shogird” fermer xo’jaliklari maydonlarida yer tayyorlash, pushta olish kabi agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish. 4. “Shogird” fermer xo’jaliklariga ekishga yer tayyorlash va ekish tadbirlariga amaliy yordam berish.	2026-yil mavsum davomida 2026-yil fevral 2026-yil mavsum davomida	Viloyat hokimining qishloq va suv xo’jaligi masalalari bo’yicha birinchi o’rinbosari (U.Uzoqov), Viloyat Qishloq xo’jaligi boshqarmasi (O.Boymirov), “O’zagroinspeksiya” viloyat boshqarmasi (S.Donayev), tumanlar hokimlari,
5.	Chigit ekish ishlariga tayyorgarlik va ekish ishlarini tizimli tashkil etish.	1. Viloyatda 2026-yil hosili uchun 127,8 ming gektar maydonga, shundan shundan 69,3 ming gektarga 76x10 sm qo’shqator (<i>sh.j 39,1 ming ga Shinjon usulida</i>) hamda 58,5 ming gektarga 76 sm yakkaqator sxemalarida ekish ishlarini samarali amalga oshirish. 2. 2026-yil hosili uchun chigit ekish uchun zarur yoqilg’i moylash materiallari, mineral o’g’itlar va	2026-yil mart 2026-yil fevral	Viloyat hokimining qishloq va suv xo’jaligi masalalari bo’yicha birinchi o’rinbosari (U.Uzoqov), Viloyat Qishloq xo’jaligi boshqarmasi

		boshqa resurslar uchun imtiyozli kredit mablag'lari ajratilishini tashkil etish. 3. Viloyatda 54,7 ming gektarga ko'sak qurti va gerbitsidga chidamli, yuqori hosildor xorijiy g'o'za navlari hamda 73,1 ming gektarga tezpishar, serhosil mahalliy g'o'za navlarini joylashtirish. 4. Har bir hududda chigit ekishga yer tayyorlash hamda chigit ekish tadbirlarini ilmiy asosda tashkil etish bo'yicha joylarda dala o'quv seminarlarini o'tkazish.	2026-yil mart 2026-yil mart	(O.Boymirov), Viloyat o'simliklar karantini va ximoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), tijorat banklari, tuman xokimlari
6.	Viloyatda 2026-yil hosili uchun g'alla maydonlarida kechiktirib bo'lmaydigan agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	1. G'alla yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari g'alla maydonlarini inventarizatsiyadan o'tkazish. 2. "Qoloq" g'alla maydonlariga qo'shimcha agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish. 3. G'o'za qator orasiga g'alla ekilgan 102 ming gektarlarni g'o'zapoya va begona o't qoldiqlaridan tozalash. <i>Bunda yer muzlagan paytlarda g'alla nihollariga ziyon yetkazmasdan g'o'zapoyani o'rib olishni tashkil etish.</i> 4. G'alla ekilgan har bir konturning suv kiradigan quloqlar boshida 3x2x1,5 o'lchamda hosil xandaqlarini qazish. 5. G'alla ekilgan maydonlarning har bir gektariga har oyda 3 tonnadan mahalliy o'g'it chiqarishni tashkil etish. 6. Parvarish qilinayotshgan 130 ming gektar	2026-yil fevral 2026-yil fevral 2026-yil mavsum davomida 2026-yil fevral	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (U.Uzoqov), Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (O.Boymirov), Viloyat o'simliklar karantini va ximoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i (F.Siddiqov), tumanlar hokimlari

	g'alla maydonlarni azotli mineral o'g'itlar bilan havo harorati +4-5 °S.dan ko'tarilgandan so'ng bahorgi birinchi oziqlantirishni boshlash va g'allani peshma-pesh sug'orishni tashkil etish. <i>Bunda g'allani rivojlanish fazalariga qarab, birinchi navbatda, kech ekilgan, g'alla maydonlaridan boshlash va gektariga 200-250 kg.dan azotli mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish, peshma-pesh sharbat usulida sug'orish.</i> 7. G'allaning o'sishi, rivojlanishini inobatga olib, naychalash davrida gektariga 300-350 kg.dan azotli mineral o'g'itlar bilan ikkinchi oziqlantirishni va sharbat usulida sug'orishni tashkil qilish. 8. G'alla maydonlariga 2-3-marta makro va mikro elementlarga boyitilgan biostimulyator yordamida bargidan suspenziya usulida ishlov berildi 9. G'alla maydonlarida begona o'tlarga qarshi gerbitsidlar bilan ishlov berish. 10. G'alla maydonlarida uchraydigan kasalliklarga qarshi furgetsidlar bilan ishlov berish choralari ko'rish. <i>Bunda birinchi navbatda "zang" kasallagi tarqaydigan nuqtalardagi g'alla maydonlarga ishlov berish ishlarini tashkil etish.</i>	2026-yil fevral 2026-yil mart 2026-yil mart 2026-yil mart	
--	---	---	--

7.	Dukkakli-don ekinlarini ekishga tayyorgarlik ishlarini tashkil etish.	1. Dukkakli-don ekinlari yetishtiruvchi fermerlarni aniqlash, yerlarni va urug'larni ekishga tayyorlash, o'g'it zahiralarini yaratish choralari ko'rish. 2. 2026-yil hosili uchun viloyatda 14,5 ming gektar asosiy maydonlarda dukkakli don ekinlarini ekish (<i>shundan 9,1 ming gektar no'xat, 2,4 ming gektar mosh, 854 gektar loviya, 370 gektar qizil loviya, 1,8 ming gektar yeryong'oq</i>). 3. Lalmi maydonlarda erta bahorda no'xatga gektariga 100-120 kg.dan azotli o'g'itlar bilan oziqlantirish.	2026-yil fevral 2026-yil fevral-mart 2026-yil mart	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (U.Uzoqov), Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (O.Boymirov), Viloyat o'simliklar karantini va ximoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), tumanlar hokimlari
8.	Moyli ekinlarni ekishga tayyorgarlik ishlarini tashkil etish.	1. Moyli ekinlar yetishtiruvchi fermerlarni aniqlash, yerlarni va urug'larni ekishga tayyorlash, o'g'it zahiralarini yaratish choralari ko'rish. 2. Oziq-ovqat xavsizligini ta'minlash maqsadida viloyatda asosiy maydonlarning 21,6 ming gektarga moyli ekinlar ekish, shundan 14,6 ming gektarga kungaboqar, 7,1 ming gektarda kunjut ekinlar ekish.	2026-yil fevral 2026-yil mart	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (U.Uzoqov), Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (O.Boymirov), Viloyat o'simliklar karantini va ximoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), tumanlar hokimlari

9.	Viloyatda qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining 47,2 ming gektarida zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy qilish hamda 27,4 ming gektar maydonlarda lazerli tekislash ishlarini amalga oshirish orqali mavjud suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil qilish.	1. 2026-yil hosili uchun paxta va g'alla maydonlarida suv tejovchi texnologiyalarini joriy qilish istagida bo'lgan talabgorlarni ro'yxatini shakllantirish. 2. Qishloq xo'jaligi korxonalari bilan quruvchi pudrat korxonalari o'rtasida suv tejovchi texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha shartnoma rasmiylashtirish ishlarini to'liq yakunlash. 3. "Suvkredit.uz" platformasi orqali rasmiylashtirilgan pudrat shartnomalariga asosan imtiyozli kredit mablag'larini ajratish choralarini ko'rish. 4. Imtiyozli kredit mablag'lari ajratilgan maydonlarda suv tejovchi texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha qurilish-montaj ishlarini to'liq yakunlanishini ta'minlash. 5. Oldingi yillarda suv tejovchi texnologiyalari joriy qilingan maydonlarni to'liq xatlovdan o'tkazgan holda ushbu texnologiyani sug'orish mavsumiga qadar to'liq ishga tushurilishini ta'minlash. 6. Oldingi yillarda 22,6 ming gektar tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilingan maydonlarda 2026-yil hosili uchun "Shinjon usuli"da paxta yetishtirish maqsadida 2 ming tonna plyonka hamda 298 ming km tomizg'ichli shlang zahirasini yaratish choralarini ko'rish. 7. Lazer qurilmalari orqali lazerli tekislash	2026-yil fevral-mart	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (U.Uzoqov), "Amu-Qashqadaryo" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (F.Sidiqov), tumanlar hokimlari
----	---	---	---------------------------------	---

		ishlarini amalga oshirish. 8. Har oy yakuni bilan mazkur tadbirlar ijrosi bo'yicha muhokama o'tkazish va aniqlangan muammolarni hal etish choralarini ko'rish.		
10.	2025-2026-yillar kuz-qish mavsumida klaster va fermer xo'jaliklari hisobidagi ichki sug'orish tarmoqlarini tozalash hamda betonlashtirish tadbirlarini amalga oshirish.	1. 2025-2026-yillar kuzgi-qishki mavsumida klaster va fermer xo'jaliklari hisobidagi betonlashtiriladigan hamda tozalanadigan ichki sug'orish tarmoqlari bo'yicha reja-grafiklar ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan reja-grafiklarga asosan zarur bo'lgan texnika va mexanizmlarni hamda ishchi kuchlarni jalb qilgan holda 4,5 ming km ichki sug'orish tarmoqlarini tozalash ishlarini tashkil etish. 3. Klaster va fermer xo'jaliklari hisobidagi 2,57 ming km uzunlikdagi ichki sug'orish tarmoqlarini sifatli betonlashtirish choralarini ko'rish. 4. Har oy yakuni bilan mazkur tadbirlar ijrosi bo'yicha muhokama o'tkazish va aniqlangan muammolarni hal etish choralarini ko'rish.	2026-yil fevral-mart	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (U.Uzoqov), "Amu-Qashqadaryo" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (F.Sidiqov), tumanlar hokimlari
11.	Tumanlarda klaster va fermer xo'jaliklari hisobidagi 105 dona ichki nasos agregatlari energiya ta'minotini muqobil energiya (quyosh panellari) manbalariga o'tkazish choralarini ko'rish.	1. 2026-yilda ichki nasos agregatlariga quyosh panellarini o'rnatish istagida bo'lgan talabgorlarni ro'yxatini shakllantirish. 2. Qishloq xo'jaligi korxonalari bilan quruvchi pudrat korxonalari o'rtasida quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha shartnoma rasmiylashtirish	2026-yil fevral-mart	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (U.Uzoqov),

		ishlarini tashkil etish. 3. Rasmiylashtirilgan pudrat shartnomalariga asosan imtiyozli kredit mablag'larini ajratish choralarini ko'rish. 4. Imtiyozli kredit mablag'lari ajratilgan maydonlarda quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha qurilish-montaj ishlarini to'liq yakunlanishini ta'minlash. 5. Har oy yakuni bilan mazkur tadbirlar ijrosi bo'yicha muhokama o'tkazish va aniqlangan muammolarni hal etish choralarini ko'rish.		“Amu-Qashqadaryo” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (F.Sidiqov), tumanlar hokimlari
12.	2026-yil hosili uchun yangi sotib olinadigan seyalkalarni paxta yetishtiruvchilarga yetkazib berish.	1. “Shinjon” usuli va qo'shqator (ochiq) maydonlarda ekishga yangi xarid qilinadigan 272 ta ko'p funksiyali 76 sm qo'shqator seyalkalar uchun lizing va fermer xo'jaliklari o'rtasida shartnomalar tuzish ishlarini yakunlash. 2. Tuzilgan shartnomalar asosida bo'nak mablag'larini yo'naltirish ishlarini tashkil etish va seyalkalarni fermer xo'jaliklariga yetkazib berish.	2026-yil fevral 2026-yil fevral	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari birinchi bo'yicha o'rinbosari (Uzoqov), “O'zagrolizing” AJ viloyat filiali (S.Toirov), tijorat banklari, tumanlar hokimlari
13.	2026-yil paxta hosili uchun ochiq maydonlarga 76x10 sm qo'shqator va 76 sm yakkaqator ekiladigan maydonlar uchun yetishmaydigan texnikalarni	1. Agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishi uchun yetishmaydigan 821 ta chopiq traktori, 1 074 ta kultivator, 180 ta ekish seyalkalari moslashtirish ishlarini to'liq yakunlash.	2026-yil fevral	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari

	moslashtirish.	2. Qo'shqator, ko'p funksiyali (plyonka ostiga shlang bilan) aniq donalab ekish mavjud seyalkalarni hisob-kitob qilish. 3. Bahorgi dala ishlarini amalga oshirishda talab etiladigan yoqilg'i-moylash materiallari o'z vaqtida yetkazib berish ishlarini tashkil etish. 4. Chigit ekishni mavsumini optimal muddatlarda sifatli tashkil etish maqsadida "Chigit ekish seyalkalaridan samarali foydalanish afzalliklari" mavzusida ko'rgazmali dala seminarlarini tashkil etish.	2026-yil fevral 2026-yil fevral 2026-yil mart	(U.Uzoqov), "O'zagroinspeksiya" viloyat boshqarmasi boshlig'i (S.Donayev), tumanlar hokimlari,
14.	Viloyatda 2026-yil paxta hosili uchun urug'lik chigit tayyorlash ishlarini o'z vaqtida va sifatli tashkil etish.	1. 2025-yil hosilidan jamg'arilgan 12 ming tonna urug'lik paxta xom ashyosidan 6 392 ming tonna urug'lik chigitni tozalash (linterlash) ishlarini belgilangan grafiklar asosida amalga oshirish: Bunda, - chigitning mexanik shikastlanishi va boshqa sifat ko'rsatkichlari talab darajasida tayyorlashda korxonalarning linterlash dastgohlarini yumshoq rejimda ishlatish. - urug'lik chigitlarni tozalashda nav va avlodlar aralashmasligiga yo'l qo'ymaslik va standart talablari asosida tashish va sifatli saqlanishini nazoratga olish. 2. Viloyatdagi 5 ta urug'lik tayyorlash sexlarida urug'lik chigit to'dalaridan 2,5 ming tonna taksizlantirish, 4,8 ming tonna dorilash va qadoqlash ishlarini sifatli amalga oshirish.	2026-yil fevral 2026-yil fevral 2026-yil fevral	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (U.Uzoqov), Viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (O.Boymirov), "O'zagroinspeksiya" viloyat boshqarmasi (S.Donayev), Viloyat o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev),

		- xorijiy g'oz navlari urug'lik chigitlarini lazerli fotoseparatorlardan (<i>viloyatda mavjud bo'lmasa boshqa viloyatda amalga oshirish</i>) o'tkazish. - urug'lik sexlardagi mashinalari va dori purkash uskunalari bir tekisda ishlashini ta'minlash. - urug'lik chigitni dorilashda ishlatilayotgan kimyoviy preparatlar sinovdan o'tgan va ishlatish bo'yicha qo'llanma texnologiyasi ishlab chiqilgan urug' dorilagichlardan foydalanish. - urug'lik chigit tayyorlash jarayonida sifat ko'rsatkichlari bo'yicha davriy nazorat olib borilishini ta'minlash. - dorilanib qadoqlangan urug'lik chigitni standart talablari asosida omborlarda saqlanishini ta'minlash. - xorijiy urug'lik chigitlarning ekinbolik va molekulyar genetik xulosalarini olish. 3. Viloyatga talab etiladigan import urug'lik chigitlarni buyurtmachilar talabiga muvofiq yetkazib berilishini tashkil etish. 4. 2026-yil hosili uchun tayyorlangan urug'lik chigitlarni tarqatish shaxobchalariga dislokatsiya orqali chiqarish, sifatli saqlash va fermer xo'jaliklariga yetkazib berish.	2026-yil fevral 2026-yil mart	Urug'chilikni rivojlantirish markazi viloyat boshqarmasi (Sh.Sultonov), tumanlar hokimlari
--	--	---	---	--

15.	2025-yil ekishdan ortib qolgan urug'lik donni sifatli saqlash hamda urug'lik g'alla maydonlarida agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish.	1. 2025-yil hosilidan ekishdan ortib qolgan urug'lik donni belgilangan tartib bo'yicha saqlashni tashkil etish va doimiy nazorat o'rnatish. 2. Urug'liklarni belgilangan talablar asosida zararkunandalarga qarshi dezinfeksiya va fumigatsiya ishlarini amalga oshirish va zararsizlantirilgan omborlarda urug'liklarni sifatli saqlash. 3. Urug'lik g'alla maydonlarida ikkinchi va uchinchi monitoring tadbirlarini o'tkazish va urug'chilik talablari asosida belgilangan agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish.	2026-yil fevral-mart 2026-yil fevral-mart 2026-yil fevral-mart	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (U.Uzoqov), Viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (O.Boymirov), Viloyat o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), Urug'chilikni rivojlantirish markazi viloyat boshqarmasi (Sh.Sultonov), tumanlar hokimlari
16.	2026-yil paxta va g'alla hosili uchun talab etiladigan mineral o'g'itlar zahirasini yaratish va biolaboratoriyalarni mavsumga tayyorlash.	1. G'allani bahorgi oziqlantirishda talab etiladigan 87 ming tonna azotli mineral o'g'itlar zahirasini yaratish. Bunda, birinchi oziqlantirishga 26,1 ming tonna (203 kg/ga), ikkinchi oziqlantirishga 43,5 ming tonna (338 kg/ga), uchinchi oziqlantirishga 17,4 ming tonna (135 kg/ga).	2026-yil fevral	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (U.Uzoqov), Viloyat o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi

	2. 2026-yil paxta hosili uchun talab etiladigan 239 ming tonna fosforli (ammofos hisobida), 106 ming tonna kaliyli o'g'itlarga zarur mablag'lar uchun buyurtmanomalarni Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga taqdim etish. 3. Birja savdolariga qo'yilgan mineral o'g'itlarni to'liq hajmda sotib olinishini, shuningdek, oziqlantirish tadbirlarini sifatli o'tkazilishini ta'minlash. 4. Mavjud 70 ta biolaboratoriyalarda binolarni to'liq ta'mirlash va zararsizlantirish ishlarini yakunlash. 5. Biomahsulotlarni yetishtirish uchun talab etiladigan ozuqa zahirasini yaratish. 6. Viloyatda 2025-yilda agroklastlar va fermerlarga biolaboratoriyalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun 5,0 mlrd so'm debitor qarzdorliklarni to'liq undirish choralarini ko'rish.	2026-yil fevral Mavsum davomida 2026-yil fevral 2026-yil fevral-mart 2026-yil fevral	(G'.Jo'rayev), tijorat banklari, tumanlar hokimlari
--	--	---	---

Qashqadaryo viloyati hokimining
2026-yil 30-yanvardagi
33-4-0-Q/26-son qaroriga
2-ilova

**Qashqadaryo viloyati hokimining o‘rinbosari, qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar,
kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari kotibiyatining
2026-yil I yarim yillikka mo‘ljallangan**

ISH REJASI

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas‘ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo‘linma, hududiy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari.
I. Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar			
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o‘tkazilgan majlislar yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi qurilish sohasidagi topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish	I yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar , Viloyat hokimligi (B.To‘rayev, N.Mirzaraximov, Sh.To‘xtayev, S.Ashurov)

2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizmi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qaroridan kelib chiqadigan qurilish sohasidagi vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	I yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, Viloyat hokimligi (B.To'rayev, N.Mirzaraximov, Sh.To'xtayev, S.Ashurov)
II. 2025-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflari			
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrdagi "2026–2028-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-393-son qaroriga muvofiq 2026-yil investitsiya dasturiga asosan 163 ta (1,2 mlrd. so'm) ijtimoiy va infratuzilma obyektlaridan, yangidan boshlanuvchi 131 tasida qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va davlat ekspertiza xulosasi olish, tender (tanlov) savdolariga e'lon berish va uni o'tkazilishini ta'minlash, qurilish ishlarini boshlash va moliyalashtirishni ochish, qurilish-ta'mirlash ishlarini jadallashtirish.	I yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Viloyat qurilish sohasida davlat xaridlarini tashkil etish konsalting markazi, "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizasi" DUK viloyat filiali, Buyurtmachi tashkilotlar, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Viloyat hokimligi (B.To'rayev, N.Mirzaraximov)
4.	2026-yil investitsiya dasturiga asosan viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati IK" DM buyurtmachiligida 107 ta (683,7 mlrd. so'm) ijtimoiy va	I yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Viloyat qurilish sohasida davlat

	infratuzilma obyektlaridan, yangidan boshlanuvchi 104 tasida qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va davlat ekspertiza xulosasi olish, tender (tanlov) savdolariga e'lon berish va uni o'tkazilishini ta'minlash, qurilish ishlarini boshlash va moliyalashtirishni ochish, qurilish-ta'mirlash ishlarini jadallashtirish.		xaridlarini tashkil etish konsalting markazi, “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizasi” DUK viloyat filiali, Viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DM, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Viloyat hokimligi (B.To'rayev, N.Mirzaraximov)
5.	2026-yil investitsiya dasturiga asosan viloyat hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DM buyurtmachiligidagi 3 ta yildan-yilga o'tuvchi obyektlarga moliyalashtirish ochish va qurilish-ta'mirlash ishlarini jadallashtirish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DM Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Viloyat hokimligi (B.To'rayev, N.Mirzaraximov)
6.	2026-yil investitsiya dasturiga asosan viloyat hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DM buyurtmachiligidagi 81 ta ijtimioy soha obyektlaridan 48 ta maktab, 1 ta ixtisoslashtirilgan maktab, 14 ta maktabgacha ta'lim, 1 ta oliy ta'lim, 17 ta sog'liqni saqlash obyektlarni tender (tanlov) savdolariga e'lon berish va uni o'tkazilishini ta'minlash, qurilish ishlarini boshlash va moliyalashtirishni ochish, qurilish-ta'mirlash ishlarini jadallashtirish va beligilan-gan muddatda sifatli qilib, foydalanishga topshirilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'lim agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi, Sog'liqni saqlash boshqarmasi, Viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati IK” DM, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Viloyat hokimligi (B.To'rayev, N.Mirzaraximov)
Uy-joylar bo'yicha.			
7.	2026-yil uy-joy dasturiga asosan “Yangi O'zbekiston”	I yarim	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi

	massivlarida 1 336 xonadonli ko'p qavatliuy joylarni qurilish ishlarini jadallashtirish va belgilangan muddatda foydalanishga topshirish. Koson tumanida 56 xonadon Qarshi tumanida 848 xonadon Qamashi tumanida 432 xonadon.	yillikda	boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida viloyat hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, Koson, Qarshi, Qamashi tumani hokimligi, Viloyat hokimligi (B.To'rayev, N.Mirzaraximov)
8.	2026-yil uy-joy dasturiga asosan Uy-joyga talab yuqori bo'lgan boshqa hududlarda 6 174 xonadonli ko'p qavatliuy joylarni qurilish ishlarini jadallashtirish va belgilangan muddatda foydalanishga topshirish.	I yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida viloyat hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, Tuman va shahar hokimliklari, Viloyat hokimligi (B.To'rayev, N.Mirzaraximov)
Viloyat aholisini ichimlik suvi ta'minotini yanada yaxshilash bo'yicha.			
9.	2026-йил ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish дастури бўйича 396 км ичмлик ва оқава сув тармоқларини тортиш, 13 та иншоот куриш.	I yarim yillikda	“Qashqadaryo suv ta'minoti” MCHJ, “Suv ta'minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo'yicha IK” DUK, Viloyat hokimligi (B.To'rayev, S.Ashurov)
Elektr energiya ta'minoti bo'yicha.			
10.	Elektr uzatish tarmoqlari, transformator punktlari va podstantsiyalarni 2025-2026-yil kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha mukammal ta'mirlash ishlari dasturida belgilangan	I yarim yillikda	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qashqadaryo hududiy filiali, Tuman(shahar)lar hokimliklari Viloyat hokimligi

	ko'rsatkichlarni so'zsiz bajarilishini ta'minlash.		(B.To'rayev, S.Ashurov)
11.	Iste'molchilarga, ayniqsa xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan shartnomaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish va rivojlantirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, muddatlarini optimallashtirish.	I yarim yillikda	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qashqadaryo hududiy filiali, Tuman(shahar)lar hokimliklari Viloyat hokimligi (B.To'rayev, S.Ashurov)
Tabiiy va suyultirilgan gaz ta'minoti bo'yicha.			
12.	5,0 km gaz tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash	I yarim yillikda	“Hududgaz Qashqadaryo” gaz ta'minoti filiali, Tuman(shahar)lar hokimliklari Viloyat hokimligi (B.To'rayev, S.Ashurov)
13.	Tabiiy gazdan xavfsiz foydalanishni ta'minlash maqsadida 4 000 ta gaz regulyatorlarini o'rnatish.	I yarim yillikda	“Hududgaz Qashqadaryo” gaz ta'minoti filiali, Tuman(shahar)lar hokimliklari Viloyat hokimligi (B.To'rayev, S.Ashurov)
Hududiy avtomobil yo'llarini rivojlantirish bo'yicha.			
14.	2026-yilda jami 112,0 mlrd so'm 204 km avtomobil yo'llarini qurish rekonstruksiya qilish va ta'mirlash: Tuproq yo'llarni shag'allashtirish jami 50 km .	I yarim yillikda	Viloyat avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi, tuman(shahar)lar hokimliklari Viloyat hokimligi (B.To'rayev, Sh.To'xtayev)
15.	Umumfoydalanuv avtomobil yo'llarida joylashgan yildan-yilga o'tuvchi 3 ta (9,5 mlrd so'm) ko'priklarda qoldiq ish hajmlarini yakunlash va foydalanishga topshirish. (Qarshi, Nishon va	I yarim yillikda	Viloyat avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi,

	Mirishkor tumanlari 1 tadan)		tuman(shahar)lar hokimliklari Viloyat hokimligi (B.To'rayev, Sh.To'xtayev)
Transport tizimi bo'yicha			
16.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-sonli qaroriga asosan Jamoat transporti ustuvorligini ta'minlash maqsadida yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish. Shahrisabz shahar ichi jamoat transporti yo'nalishlari doimiy harakatlanadigan alohida avtobus yo'laklarini "A" (BRT) tez yurar avtobus yo'nalishi tizimini joriy etish.	I yarim yillikda	Viloyat transport boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari Viloyat hokimligi (B.To'rayev, Sh.To'xtayev)
17.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-iyuldagi PQ-316-sonli qaroriga asosan Jamoat transportida avtomatlashtirilgan to'lov tizimini joriy qilish.	I yarim yillikda	Viloyat transport boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari, Viloyat hokimligi (B.To'rayev, Sh.To'xtayev)
18.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-iyuldagi PQ-316-sonli qaroriga asosan Muntazam yo'nalishlarda yo'lovchi tashishni amalga oshiruvchi avtotransport vositalarini quyida keltirilgan muddatlardan boshlab navigatsiya qurilmalari (GPS/GLONASS treker) bilan jihozlash.	I yarim yillikda	Viloyat transport boshqarmasi, Viloyat IIB YHXB, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, Qarshi shahar hokimligi, Viloyat hokimligi (B.To'rayev, Sh.To'xtayev)
Ekologiya va atrof muhitni muhofoza qilish bo'yicha			
19.	2026-yil bahor va kuz mavsumlarida Yashil makon umummilliy loyihasi doirasida 16,3 mln dona manzarali mevali daraxt ko'chatlari, buta va terak qalamchalarini ekish. Shundan bahor mavsumiga 6 mln 130 ming dona, kuz mavsumida 10 mln 174 ming dona.	I yarim yillikda	Viloyat ekologiya va atrof muhitni muhofoza qilish boshqarmasi, Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, Tuman (shahar) hokimliklari, Viloyat hokimligi

			(B.To'rayev, Sh.To'xtayev)
Sanitar tozalash bo'yicha			
20.	2026-yilda debitor qarzдорlikni qisqartirish bo'yicha tarmoq jadvali ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash choralarini ko'rish.	I yarim yillikda	Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining viloyat boshqarmasi, Sanitar tozalash korxonalari, Moliya boshqarmasi, tuman(shahar)lar hokimliklari, Viloyat hokimligi (B.To'rayev, Sh.To'xtayev)

Qashqadaryo viloyati hokimining
2026-yil 30-yanvardagi
33-4-0-Q/26-son qaroriga
3-ilova

**Qashqadaryo viloyati hokimining o‘rinbosari – viloyati investitsiya, sanoat va savdo boshqarmasi
boshlig‘i kotibiyatining 2026-yil I yarim yillik**

ISH REJASI

№	Ustuvor vazifalar.	Ijro muddati	Mas’ullar
I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan topshiriqlar ijrosini maqsadli o‘rganish			
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-son qarori ijrosini maqsadli o‘rganish.	I yarim yillik mobaynida	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas’ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-favraldagi PQ-44-son qarorida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	I yarim yillik mobaynida	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas’ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-maydagi PQ-179-son qarorida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	I yarim yillik mobaynida	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas’ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati

II. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar			
1.	Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan vazifalarni sifatli amalga oshirish.	I yarim yillik mobaynida	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas’ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
2.	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, idoralar va xo‘jalik birlashmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashriflari yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlarni so‘zsiz va sifatli bajarish.	I yarim yillik mobaynida	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas’ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
3.	Kotibiyatga biriktirilgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o‘tkazilgan yig‘ilish bayonnomalari topshiriqlarini so‘zsiz va sifatli bajarish.	I yarim yillik mobaynida	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas’ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
4.	O‘zbekiston tomonidan “Preferensiyalarning bosh tizimi plyus” (“GSP+”) tizimi doirasida Yevropa Ittifoqi bozoriga mahsulotlar eksport hajmlarini ko‘paytirish choralarini ko‘rish.	I yarim yillik mobaynida	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas’ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
5.	“Yangi O‘zbekiston - raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturini amalga oshirishni davom ettirish va eksportchi korxonalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish.	I yarim yillik mobaynida	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas’ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
III. Investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini tahlil etish, natijalari asosida sohalarni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan tadbirlar			
1.	Hududlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, xorijiy va	mart-iyun	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar,

	mahalliy investorlarni jalb qilish uchun yangi investitsiya loyiha takliflarini ishlab chiqish.		mas'ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
2.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilish hajmini oshirish bo'yicha zarur tadbirlarni amalga oshirish.	mart-iyun	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas'ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
3.	Iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali viloyatning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish. yirik ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlarini ishga tushirish orqali yangi ish o'rnini tashkil etish.	mart-iyun	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas'ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
4.	2026-yil eksport ko'rsatkichlari ijrosini tashkil etish va muhokama qilib borish. Eksport ko'rsatkichlari ijrosida yuzaga kelayotgan muammoli masalalarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish. Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo'yicha viloyat komissiyasi yig'ilishida muhokama qilib bo'rish	mart-iyun	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas'ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
5.	Oliy darajadagi tashriflarga tayyorgarlik ko'rish, tashrif natijalari bo'yicha belgilangan tashkiliy tadbirlarning amalga oshirilish holatini doimiy monitoring qilish.	mart-iyun	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas'ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati
6.	Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyatini, shu jumladan investor tomonidan o'zining investitsiya majburiyatlari to'liq bajarilishini tizimli tahlil qilish, shu jumladan joyiga chiqqan holda.	har oy	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas'ul idora va tashkilotlar shahar va tumanlar hokimliklari Investitsiya masalalari kotibiyati
7.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga	mart-iyun	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar,

	oshirilayotgan investitsiya loyihalarining holatini monitoring qilish va joyiga chiqqan holda o'rganish.		mas'ul idora va tashkilotlar shahar va tumanlar hokimliklari Investitsiya masalalari kotibiyati
8.	Viloyat hokimining o'rinbosari rahbarligida tegishli boshqarma va idoralarning sohani isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan choralarni muhokama qilish.	har chorak	Kotibiyatga biriktirilgan boshqarmalar, mas'ul idora va tashkilotlar Investitsiya masalalari kotibiyati

Qashqadaryo viloyati hokimining
2026-yil 30-yanvardagi
33-4-0-Q/26-son qaroriga
4-ilova

**Qashqadaryo viloyat hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha o'rinbosari kotibiyatining 2026-yil 1-yarim yillikka uchun mo'ljallangan
ISH REJASI**

T/r	Ustuvor vazifalarni amalga oshirish yuzasidan bajariladigan ishlar	Muddati	Mas'ullar
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosi hamda “2026-yil Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” davlat dasturi loyihasiga takliflar berish va dastur qabul qilingandan so'ng ijtimoiy majmuaga tegishli bandlari ijrosini o'z vaqtida ta'minlash.	2026-yil 1-yarim yillikda	I.Norqulov, Sh.Toshpo'latov, Barcha ijtimoiy soha tashkilot rahbarlari
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, farmoyish, qarori va yig'ilish bayonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident Administratsiyasi topshiriqlarini o'z vaqtida ijrosini ta'minlash va ijrosini nazoratga olish.	doimiy	I.Norqulov, Sh.Toshpo'latov
3	Ota-onalar bilan ta'lim muassasasi o'rtasida hamkorlikning samarali yo'lga qo'yish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari raisligida, psixolog, Yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar va kasaba uyushma tomonidan jinoyat sodir etishga moyil, notinch oila farzandlari va ularning ota-onalari bilan alohida tarbiyaviy ishlarni olib borish.	2026-yil 1-yarim yillikda	I.Norqulov, Sh.Toshpo'latov, Barcha ijtimoiy soha tashkilot rahbarlari
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktyabrdagi “Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-190-son Farmon va 2025-yil 23-oktyabrdagi	2026-yil 1-yarim yillikda	I.Norqulov, Sh.Toshpo'latov,

	PQ-316-son Qarorlari ijrosini ta'minlash.		Kasbiy ta'lim boshqarmasi
5	Yoshlarni zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun shart-sharoitlarni yaratish, jumladan o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatish; Kasbiy ta'lim muassasalarida Dual ta'limga jalb etiladigan o'quvchilar soni 3500 nafar yetkazish.	2026-yil 1-yarim yillikda	I.Norqulov, Sh.Toshpo'latov, Kasbiy ta'lim boshqarmasi
6	Kasbiy va oliy ta'lim muassasalarida yoshlar uchun nemis tili kurslari o'qitishni tashkil qilish; xorijiy tillar bo'yicha mahalliy va xorijiy davlatlarning talablari hamda ta'lim dasturlari doirasida o'quv dasturini ishlab chiqish; o'quv kurslarida mashg'ulotlarni o'tkazish uchun kamida B2 va C1 darajadagi sertifikatga ega bo'lgan malakali nemis tili o'qituvchilarini jalb qilish.	2026-yil 1-yarim yillikda	I.Norqulov, Sh.Toshpo'latov, Kasbiy ta'lim boshqarmasi, Viloyatdagi barcha oliy ta'lim muassasalari rektorlari
7	Viloyatning oliy ta'lim muassasalarida “Talabalar” uchrashuvini tashkil etish; Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyati yanada kengaytirish, bunda bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish; Qabul parametrini shakllantirish va tasdiqlashni soddalashtirish, ushbu jarayonda oliy ta'lim muassasalari vakolatini kengaytirish; Talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etishda loyihalarni moliyalashtirishning maqbul usullarini yo'lga qo'yish.	2026-yil 1-yarim yillikda	I.Norqulov, Sh.Toshpo'latov, Viloyatdagi barcha oliy ta'lim muassasalari rektorlari
8	2026-yilda maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi barcha islohotlar hamda ta'limi sohasida amalga oshiriladigan aniq ustuvor vazifalarni ijrosini ta'minlash (49-son va 50-son bayonlari 18.10.2025 y)	2026-yil 1-yarim yillikda	I.Norqulov, Sh.Toshpo'latov, Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi

9	Maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish; 2026-yil yakuniga qadar 3-7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'limiga qamrovini 75 foizga; Jumladan, 6-yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish.	2026-yil 1-yarim yillikda	I.Norqulov, Sh.Toshpo'latov, Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi
10	Bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish.	2026-yil 1-yarim yillikda	I.Norqulov, Sh.Toshpo'latov, Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi
11	Umumta'lim maktablari kasb-hunarga o'rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish; Milliy o'quv dasturiga asosan yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish va yetakchi xalqaro nashriyotlardan eng sara darslik va kitoblarni belgilangan tartibda xarid qilish; Maktab o'qituvchilarini belgilangan xalqaro standartlar asosida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash; Viloyat bo'yicha 2026-yilda maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichini 45 foizga yetkazish; Xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirish; Ta'lim sifatini oshirish maqsadida xorijiy ekspertlarni jalb etish.	2026-yil 1-yarim yillikda	I.Norqulov, Sh.Toshpo'latov, Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi
